
“Ochiq byudjet”: 12 ta loyiha uchun 8 mlrd.759 mln soʻmdan ziyod mablagʻ ajratildi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan, 2022 yildan Davlat byudjeti parametrlarida byudjetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirish maqsadida, Rishton tumani mahalliy byudjetidan 1-bosqichda 4 mlrd. 944 mln. soʻm mablagʻ va 2021 yildan ishlatilmay qolgan mablagʻdan 398 mln soʻm, yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablagʻlarining daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan ishi 30 foizi, yaʼni 1 mld 032 mln. soʻm – jami 6 mlrd. 374 mln. soʻm mablagʻ jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yoʻnaltirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi”ga oʻtkazildi. Rishton tumani “Ochiq byudjet” axborot portaliga 109 mlrd.610 mln. soʻmlik 248 ta loyiha taklifi kelib tushdi. Takliflarni koʻrib chiqish jarayonida 30 mlrd. 640.7 mln. soʻmlik 74 ta taklif belgilangan mezonlarga mos kelmagani sababli ishchi guruh tomonidan rad qilingan boʻlsa, 78 mlrd. 969.2 mln. soʻmlik 174 ta taklif belgilangan tartibda koʻrib chiqilib, keyingi bosqichga – ovoz berish jarayoniga oʻtkazildi. “Ochiq byudjet” axborot portaliga qoʻyilgan loyihalar uchun jami 83 ming 615 nafar fuqaro ovoz berish jarayonida ishtirok etdi va yakunda qiymati 6 mlrd. 374 mln. soʻmlik 8 ta loyiha gʻolib, deb topildi:1. D.Mamatqulov tomonidan “Boʻjay” qishlogʻini gazlashtirish uchun kiritilgan 1 mlrd 080 mln. soʻmlik loyiha – 10 ming 312 ta ovoz bilan;2. S.Muhtidinov tomonidan 58- sonli umumtaʼlim maktabini joriy tamirlash uchun kiritilgan 700 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 966 ta ovoz bilan;3. X.Sayfutdinov tomonidan “Bogʻiston MFY” ning infratuzilmasini yaxshilash uchun kiritilgan 1.0 mlrd. soʻmlik loyiha – 6 ming 859 ta ovoz bilan;4. D.Soliev tomonidan “Jaxonobod MFY” ning shagʻallashtirilgan koʻchalarni asfaltlashtirish uchun 998.0 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 829 ta ovoz bilan;5. A.Ahmadqulov tomonidan “Chek Jalaer MFY” ning TP va elektr tarmogʻi tayanch ustunlari oʻrnatish,yopiq kabel tortish ishlari uchun kiritilgan 450 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 812 ta ovoz bilan; 6. M.Xakimova tomonidan Zoxidon qishlogʻidagi yuqimli kasalliklar shifoxonasini rekonstruktsiya qilish uchun kiritilgan 750 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 744 ta ovoz bilan;7. D.Nazirjonov tomonidan “Quy Avazboy” MFY TP va elektr tarmogʻi tayanch ustunlari oʻrnatish,yopiq kabel tortish ishlari uchun kiritilgan 596 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 652 ta ovoz bilan; 8. A.Moʻminov tomonidan 32-sonli umutaʼlim maktabda joriy taʼmirlash ishlarini bajarish ishlari uchun kiritilgan 800 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 618 ta ovoz bilan gʻolib deb topildi.Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 aprelyl “Tuman va shahar byudjetlari mablagʻlarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yoʻnaltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida”gi PQ-197 sonli qaroriga asosan, tuman (shahar)da 2022 yil fevral-mart oylari davomida oʻtkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz toʻplagan, lekin gʻolib deb topilmagan 4 ta loyihani amalga oshirish uchun jami 15 ming 337 nafar fuqaro ovoz berish jarayonida ishtirok etgan va qoʻshimcha ravishda 2 mlrd. 385 mln. soʻm mablagʻ ajratish belgilangan. Shunga koʻra:9. N.Nazirova tomonidan 14-maktabda joriy taʼmirlash ishlarini olib borish uchun uchun kiritilgan 500 mln. soʻmlik loyiha – 6 ming 018 ta ovoz bilan;10. T.Oʻrinov tomonidan 2 IDUMI yotoqxonasi rekonstruktsiya qilish uchun kiritilgan 980 mln. soʻmlik loyiha – 4 ming 908 ta ovoz bilan;11. D.Xoliqov tomonidan Arxiv binosini joriy taʼmirlash uchun kiritilgan 400 mln. soʻmlik loyiha – 2 ming 218 ta ovoz bilan;12. Gʻ.Abdurashidov tomonidan 30 IDUM binosini joriy taʼmirlash ishlari uchun kiritilgan 505 mln. soʻmlik loyiha – 2 ming 193 ta ovoz bilan gʻolib, deya eʼtirof etildi. Umuman olganda, tumanimiz boʻyicha jami 8 mlrd. 759 mln. soʻmlik 12 ta loyiha gʻolib sifatida tanlab olinib, har bir loyiha uchun maxsus gʻazna hisobvaraqlari ochildi va “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi” maxsus gʻazna hisobvaragʻidan toʻliq tuman xokimligi, tibbiyot birlashmasi, xalq taʼlimi boʻlimi hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi uchun ochilgan maxsus hisobvaraqlarga oʻtkazib berildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-06-14 14:31:31